

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**PhD.03/30.06.2020.Fal.60.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

**ISKANDAROVA DILDORAXON MANNOBJONOVNA**

**ZAMONAVIY TALABA YOSHLAR AKSIOLOGIK**  
**ORIENTATSIYASINING IJTIMOY - FALSAFIY TAHLILI**  
**(Farg‘ona vodiysi OTMlari talabalari misolida)**

**09.00.04 – Ijtimoiy falsafa**

**FALSAFA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Andijon – 2024**

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
философским наукам**

**Contens of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on  
Philosophical Sciences**

**Iskandarova Dildoraxon Mannobjonovna**

Zamonaviy talaba yoshlar aksiologik oriyentatsiyasining ijtimoiy - falsafiy tahlili  
(Farg‘ona vodiysi OTMlari talabalari misolida) ..... 3

**Искандарова Дилдорахон Маннобжоновна**

Социально-философский анализ аксиологической ориентации современной  
студенческой молодежи (на примере студентов ВУЗов Ферганской  
долины) ..... 23

**Iskanderova Dildora Mannobjonovna**

Socio-philosophical analysis of the axiological orientation of modern student  
youth (on the example of students of higher education institutions of the Fergana  
valley) ..... 45

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 50

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**PhD.03/30.06.2020.Fal.60.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

**ISKANDAROVA DILDORAXON MANNOBJONOVNA**

**ZAMONAVIY TALABA YOSHLAR AKSIOLOGIK**  
**ORIENTATSIYASINING IJTIMOY - FALSAFIY TAHLILI**  
**(Farg‘ona vodiysi OTMlari talabalari misolida)**

**09.00.04 – Ijtimoiy falsafa**

**FALSAFA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Andijon – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasida B2023.2.PhD/Fa1972 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Andijon davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.adu.uz](http://www.adu.uz)) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Yuldasheva Farida Xujamkulovna**  
falsafa fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**G‘aniyev Baxodir Sodiqjonovich**  
falsafa fanlari doktori, dotsent

**Aktamaliyev Asanbek Turgunbayevich**  
falsafa fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Namangan davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.06.2020.Fal.60.04 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil “18” sentabr kuni soat 10 daqi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 170100. Andijon shahri, Universitet ko‘chasi, 129-uy. Andijon davlat universiteti Axborot-resurs markazi binosi, 3-qavat, 301-xona. Tel.: (74) 223-88-30; faks: (74) 223-88-30, e-mail: [agsu\\_info@edu.uz](mailto:agsu_info@edu.uz)).

Dissertatsiya bilan Andijon davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (\_\_\_\_ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 170100, Andijon shahri, Universitet ko‘chasi, 129-uy. Tel.: (74) 225-02-08; faks: (74) 223-88-30, e-mail: [andu\\_arm@umail.uz](mailto:andu_arm@umail.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “3” sentabr da tarqatildi.

(2024-yil “\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ daqi \_\_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi).

**F.X.Yuldasheva**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, falsafa fanlari doktori, professor

**X.N.Xolmirzayev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

**A.A.Egamberdiyev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, falsafa fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Tez sur'atlar bilan o'zgarib borayotgan global dunyoda yoshlar va talaba yoshlarning ijtimoiy jarayonlardagi o'rni, ular tomonidan tanlab olinayotgan turmush tarzi, madaniyat, qadriyatlar muhim hisoblanadi. Ularning tanlovi, qadriyatlarining qanday yo'nalganligi albatta, jamiyat taraqqiyotiga ta'sir etadi. Yoshlarning saloxiyatini, qadriyatlarini to'g'ri yo'naltirish, ularning saloxiyatini rivojlantirish va maqsadli realizatsiya qilish ijtimoiy rivojlanishning omillaridan biriga aylandi.

Yoshlar omili va ularning ijtimoiy muammolari ijtimoiy falsafaning muhim ob'ektiga aylanib, nazariygina emas, jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi ilmiy-amaliy jarayon sifatida tadqiq etilmoqda. Yoshlarning intellektual rivojlanishi, bilim olishi, saloxiyatining darajasi, kreativligi ularni sub'ektiv omil sifatida jamiyatning boshqa a'zolaridan ajratib turadi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy islohotlar hamda modernizatsiya jarayonlarining natijadorligi kontekstida yoshlar ijtimoiy qadriyatlarining transformatsiyasi, bo'lajak mutaxassis - talaba yoshlarning ilmiy aksiologik orientatsiyasi jamiyatni yetuk mutaxassis kadrlar bilan ta'minlash, uning iqtisodiygina emas, madaniy-ma'naviy barqarorligini ham ta'minlashga ta'sir etadi. Shunga ko'ra mazkur muammolarni ijtimoiy-falsafiy tadqiq etish zarur hisoblanadi.

Jahonning Garvard, Pensilvaniya (AQSh), Oksford, Kembridj (Buyuk Britaniya), MDU (Rossiya), Koch, Sabanchi universitetlari (Turkiya), Qozoq milliy universiteti, Yevroosiyo Milliy universiteti (Qozog'iston), Antropologiya jamiyati (O'zbekiston), Antropologiya jamiyati (O'zbekiston) va boshqa ilmiy tadqiqot markazlarida yoshlar va ularning madaniyati, qadriyatlari, salohiyati, jamiyatda ijtimoiy pozitsiyasi va boshqa zamonaviy muammolariga oid ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekistonda yoshlarning manfaatlarini va huquqlarini himoya qilishga qaratilgan izchil va maqsadli yoshlar siyosati amalga oshirilmoqda. "Davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta'minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag'batlantiradi. Davlat yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun ularning ta'lim olishga, sog'lig'ini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishga bo'lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi"<sup>1</sup>. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Konstitutsiyasiga yoshlarga bag'ishlangan alohida moddaning kiritilishi mamlakatimizda yoshlar siyosati to'g'ri amalga oshirilayotgani, davlatimiz tomonidan yoshlar muammolariga katta e'tibor qaratilayotganligidan dalolatdir. Mamlakatimizda yoshlar bilan bog'liq muammolar va ularning huquqlarini himoya qilish davlat ahamiyatiga molik muammo tarzida belgilanmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, 2017-yil 16-fevraldagi "Oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PF-4958-son, 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. / Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.05.2023 й., 03/23/837/0241-сон. <https://lex.uz/docs/6445145>

tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son, 2021-yil 9-sentyabrdagi "Respublika oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan, ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan shug'ullanayotgan iqtidorli yoshlarni yanada qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi PF-6309-son, 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 17-sentyabrdagi "Ta'lim tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 736-sonli qarori hamda dissertatsiya mavzusiga doir boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda keltirilgan vazifalarni bajarishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining yo'nalishlariga mosligi.** Ushbu tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlat ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, ma'daniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Hozirgi kunda yoshlar omili, talaba yoshlarning qadriyatlari, aksiologik orientatsiyasi va uning jamiyat taraqqiyotidagi roli ijtimoiy falsafaning muhim muammolari hisoblanadi. "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da alohida e'tibor qaratilgan yoshlar muammolariga oid vazifalar va maqsadlar, O'zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning yoshlar, talaba yoshlar, ularning ijtimoiy o'rni, qadriyatlari masalalariga oid asarlari<sup>2</sup> tadqiqot ishining ilmiy-metodologik asosi bo'lib xizmat qiladi.

Qadriyatlar muammosini o'rganish tarixiga e'tibor bersak, albatta, Suqrotning "ezgulik nima?" degan so'zini, Aristotelning "Nikomaxning axloq kitobi"da o'z o'g'liga qarata aytilgan axloqiy qoida va qadriyatlar, uning "oltin o'rtalik" g'oyasi, Demokrit, Suqrot falsafasida shaxs – axloq qadriyati bilan birga tushunila boshlandi va u "axloqiy shaxs", deb yurutildi. Konfutsiyning "O'zingga tilamagan narsani boshqalarga ham ravo ko'rma" degan o'giti hozirgacha axloqiy qadriyat sifatida ahamiyatini yo'qotmagan.

Sharq mutafakkirlari Kaykovus, Mahmud Koshg'ariy, Imom Buxoriy, Yusuf Xos Hojib asarlarida inson axloqiga doir qarashlari qadriyatlarni shakllanishiga asos bo'lgan. Abu Nasr Forobiy, Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Imom al-Buxoriy, Najmiddin Kubro, Navoiy va boshqalar Markaziy Osiyoda aksiologiya taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan.

XIX–XX asrlarda Yevropa qadriyatlar falsafasi V.Vindelband, M.Sheler, A.Toynbi, O.Shpengler, K.Yaspers kabi olimlarning asarlarida rivojlandi. Ular madaniyat, sivilizatsiya tarixning asosida turuvchi qadriyat, P.Sorokin qadriyatlarni ijtimoiy funksiyasidan kelib chiqib yondashgan holda qadriyatlarni jamiyat ijtimoiy va madaniy hayotining asosida turishi<sup>3</sup> haqidagi nazariyani ilgari suradi. Fransuz

---

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг "2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси"; "Ёшларни қўллаб-қувватлаш ва аҳоли саломатлигини мустаҳкамлаш йили"да амалга оширишга оид Давлат дастури тўғрисида"ги 2021 йил 3 февраль ПФ-6155-сон фармони. (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 04.02.2021 й., 06/21/6155/0082-сон; Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 05.10.2021 й., 07/21/5254/0933-сон).

<sup>3</sup> Сорокин П.А. Социологические теории современности. -М., 1992.- С.18.

sotsiologi Emil Dyurkgeym faktlar (urf-odatlar, an'analar, madaniyat, din va boshqalar) qadriyatlar jamiyat barqaror taraqqiyotini ta'minlovchi va uni tashkillovchi hodisa, deterministik asos, deb hisoblaydi<sup>4</sup>.

Yoshlarning faoliyati, ehtiyojlari va manfaatlarining o'zaro dialektik aloqadorligi, ularning faolligini oshirish muammolari A.Begmatov, Q.Nazarov, A.Muxtorov, G.Tulenova, Z.Qodirova kabi faylasuf olimlarning fundamental asarlarida tadqiq etilgan. Xususan, yoshlarning ma'naviy tarbiyasi, ehtiyojlarining ortib borishi, yoshlarda innovatsion tafakkur shakllanishi kabi masalalarni (A.Begmatov), yoshlarning ijtimoiy qatlam sifatida o'ziga xos xususiyatlari (Q.Nazarov), yoshlar ijtimoiy faolligini oshirish (G.Tulenova), yoshlar ongida milliy identifikatsiya, vatanparvarlik, tolerantlik qadriyatlarini shakllantirish (Z.Qodirova), yoshlarda milliy tafakkurni rivojlantirish masalalari (G.Rahimova) tadqiq etilgan<sup>5</sup>.

Biz tadqiq etayotgan mavzuga aloqador yoshlar muammolari bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Xususan, Sh.Madayeva o'zbek mentalitetida demokratik tafakkurni shakllanish xususiyatlari, A.Egamberdiyev modernizatsiya sharoitida yoshlarda innovatsion ong va innovatsion faoliyat taraqqiyoti, oliy ta'lim tizimi transformatsiyasining talaba yoshlar ilmiy-intellektual salohiyatining shakllanishiga ta'siri, A.Abdumalikov yoshlarda axborot madaniyatini shakllantirish, O.Bozorov talaba yoshlar ma'naviy-axloqiy ongini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy omillari<sup>6</sup>, A.Isomiddinov yoshlar intellektual salohiyatini oshirishning ijtimoiy-madaniy omillari, A.Asrankulova yoshlarda ijtimoiy-iqtisodiy tafakkurni shakllantirishning falsafiy jihatlari, F.Yuldashev yoshlar faoliyatida ehtiyojlar va manfaatlar uyg'unligi, I.Saidov O'zbekiston yoshlarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash muammolariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlarni amalga oshirganlar<sup>7</sup>.

Talaba yoshlarning qadriyatlari, aksiologik orientatsiyasi muammolari so'nggi vaqtda ko'plab rossiyalik hamkasblarimiz tomonidan tadqiq etilmoqda<sup>8</sup>.

Keyingi yillarda talaba yoshlar muammosiga bag'ishlab amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar borasida talaba yoshlarning qadriyatlari, aksiologik orientatsiyasi

---

<sup>4</sup> Дюркгейм Э. Социология образования. //Перевод с французского Т.Г. Астаховой. – Москва, 1996. – С. 275.

<sup>5</sup> Туленова Г.Ж. Ёшлар ижтимоий фаоллигини оширишда маънавий омилнинг роли (ижтимоий-фалсафий таҳлил): Фал. фан. докт... дисс.... – Т., 2006; Назаров Қ. Жаҳон фалсафаси комуси. 1-китоб. – Т.: Маънавийят, 2019. – Б. 353; Раҳимова Т. Ёшларда миллий тафаккурни шакллантиришнинг ижтимоий-фалсафий асослари: Фал. фан. номз... дисс.... – Т., 2011; Кадырова З.Р. и др. Проблемы формирования идеологического иммунитета молодежи в процессе развития современного мировоззрения и национальной идентичности. -Т., 2012; Бегматов А., Анварова Д. Маънавий тарбия. – Т.: Akademiya, 2013. – Б. 82.

<sup>6</sup> Бозоров.О. Талаба ёшлар маънавий-ахлоқий онгини шакллантиришнинг ижтимоий-фалсафий омиллари: Фал. фан. бўйича фал.докт. (PhD) дисс.– Т., 2018.

<sup>7</sup> Мадаева Ш. Ўзбек менталитетида демократик тафаккурнинг шаклланиш хусусиятлари: Фал. фан. докт... дисс. – Тошкент, 2009. – Б. 248; Эгамбердиев А. Ўзбекистонда модернизация шароитида ёшларда инновацион онг шаклланишининг ижтимоий-фалсафий муаммолари: Фал.фан.бўйича фал.докт... (PhD) дисс. – Андижон, 2019; Эгамбердиев А. Ўзбекистонда олий таълим трансформациясининг ижтимоий-фалсафий таҳлили: Фалс. фан. докт... (DSc) дисс.... – Андижон, 2022. – Б.119; Бозоров О. Талаба ёшлар маънавий-ахлоқий онгини шакллантиришнинг ижтимоий-фалсафий омиллари: Фал. фан. бўйича фалс. докт... (PhD) дисс. – Тошкент, 2018; Исомиддинов А. Ёшлар интеллектуал салоҳиятини оширишнинг ижтимоий-маданий омиллари: Фал. фан. бўйича фал. докт... (PhD) дисс.... – Андижон, 2021; Асранкулова А. Ёшларда ижтимоий-иқтисодий тафаккурни шакллантиришнинг фалсафий жиҳатлари: Фал. фан.бўйича фал. докт... (PhD) дисс. – Андижон, 2021; Юлдашев Ф. Ёшлар фаолиятида эҳтиёжлар ва манфаатлар уйғунлиги: Фал.фан.докт... (DSc) дисс.... – Андижон, 2021; Саидов И. Ўзбекистон ёшларини ватанпарварлик руҳида тарбиялаш: Фал. фан. докт... (PhD) дисс. – Андижон, 2022. Абдумаликов А. Ёшларда ахборот маданиятини шакллантириш: Фал. фан. бўйича фал. докт. ... (PhD) дисс.... – Андижон, 2022.

<sup>8</sup> Сорокин П.А. Социологические теории современности. – М.: Политиздат, 1992. – С.34.

muammolari ko'plab rossiyalik hamkasblarimiz tomonidan tadqiq etilgan. P.A.Sorokin, S.N.Ikonnikova, V.T.Lisovskiy kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida talabalik ma'lum ijtimoiy vaqt va ijtimoiy makonda qaytarilib, jamiyat a'zolari, ijtimoiy guruhlariga ta'sir etuvchi guruh sifatida ta'riflangan. U fan, texnika, boshqaruv, madaniyat sohalarida yuqori malakali faoliyat olib boruvchi ziyolilar qatlamiga yaqin turishi va uni muntazam to'ldirib borishi sababli zaxira guruhini tashkil etadi. V.T.Lisovskiyning fikricha, talaba o'ziga xos shaxs sifatida kelajakda moddiy hamda ma'naviy sohalarida faoliyat olib boruvchi oliy ma'lumotli mutaxassisning ijtimoiy tayyorgarlik funksiyasini bajaradi. Demak, talaba yoshlar yoshlar qatlamining ma'rifatli, bilimli hamda ilg'or qismini tashkil etadi<sup>9</sup>.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi.** Tadqiqot ishi Andijon davlat universiteti Falsafa kafedrasida ilmiy tadqiqot ishlari rejasining "O'zbekistonda modernizatsiya jarayonida yoshlarda innovatsion ong shakllanishini ilmiy-amaliy tadqiq etish" mavzusidagi amaliy tadqiqotlar doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi.** Farg'ona vodiysi Oliy ta'lim muassasa (OTM)lari talaba yoshlarining aksiologik orientatsiyasi muammosini ijtimoiy falsafiy tahlil etish.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

zamonaviy talaba yoshlarning qadriyatları va aksiologik tanlovi va orientatsiyasining genezisi, taraqqiyoti ijtimoiy-aksiologik va tizimli dialektik fenomen (avlodlarning milliy-tarixiy, merosiy uzluksizligi, davomiyligi, ziddiyatliligi va o'zaro aloqadorligi, yoshlar ehtiyojlarining muttasil ortib, dialektik o'zgarib borishini aks ettiruvchi ijtimoiy hodisa) sifatida jamiyatning barqaror va modernizatsion, innovatsion taraqqiyotini ta'minlashdagi roli ochib berish;

talaba yoshlarning o'sib borayotgan va anglangan ehtiyojlari ularning zamonaviy aksiologik orientatsiyasining (intellektual va madaniy-ma'naviy salohiyatga, intilish va uni realizatsiya qilish, faollik, kreativ tafakkur, tanqidiy fikrlash, mobillik, axborot madaniyati, faol fuqarolik pozitsiyasi, jamiyatda modernizatsiya jarayonining sub'ektiv omili bo'lishi) dinamik o'sib boruvchi determinanti va kelajakka xizmat qiluvchi, salohiyatini realizatsiya qiluvchi hamda hayotiy ijtimoiy – aksiologik ehtiyojga aylanib boruvchi omil ekanligi dialektik va aksiologik nuqtai nazardan aniqlash;

talaba yoshlarni innovatsion qadriyatlarni tashuvchi va tarqatuvchi innovator va jamiyat barqaror dinamikasini ta'minlovchi yuksak ma'naviyatli shaxs, evolyutsion davomchilari sifatida milliy aksiologik meros va innovatsiyalarni dialektik uyg'unligi kontekstida yangi avlodlarga yetkazuvchi, ularni kreativlikka yo'naltiruvchi faol sub'ektiv omil ekanligi mantiqiy dalillash;

O'zbekistonda yoshlarning manfaatlarini himoya qilishga, intellektual, madaniy, ma'naviy salohiyatini realizatsiya qilish asosida yoshlarning faol pozitsiyaga ega bo'lishi uchun sharoitlar yaratishga qaratilgan va gumanistik tamoyil asosida amalga oshirilayotgan yoshlar siyosatining maqsadi va istiqbollarni

---

<sup>9</sup> Иконникова С.Н., Лисовский В.Т. Некоторые проблемы воспитания студенческой молодежи // Молодежь и образование. – М., 1972; Лисовский В.Т., Дмитриев В.А. Личность студента. – Л.: Изд-во ЛГУ, 1974; Сорокин П.А. Социологические теории современности. – М., 1992.С-152.

(yoshlar salohiyatini yuzaga chiqarish va realizatsiya qilish, innovatsion ongini yuksaltirish, faoliyatida innovatsiyalarni tatbiq qilish, kreativlik, tanqidiy fikrlash) prognozlashtirish metodi orqali asoslab berish;

talaba yoshlarning kelajakda mamlakatimizda ziyolilar qatlamini to'ldirib boruvchi, ijtimoiy demografik guruh – intellektual salohiyatli faol sub'ektiv omil statusiga ega bo'lishida jamiyatda imkoniyatlari va huquqlarini oshib borishida jamiyat barqarorligini ta'minlovchi aksiologik orientatsiyasi va yaratuvchilik roli ochib berish.

**Tadqiqotning ob'ekti.** Talaba yoshlarning aksiologik orientatsiyasi.

**Tadqiqotning predmeti.** Talaba yoshlar zamonaviy aksiologik orientatsiyasining o'ziga xos xususiyatlari.

**Tadqiqotning usullari:** dissertatsiyada dialektika, tarixiylik va mantiqiylik, analogiya, qiyosiy tahlil, prognozlashtirish metodlaridan va aksiologik, praksilogik, sotsiologik (so'rov, anketa) yondashuvlardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

zamonaviy talaba yoshlarning qadriyatlari va aksiologik tanlovi va orientatsiyasining genezisi, taraqqiyoti ijtimoiy-aksiologik va tizimli dialektik fenomen (avlodlarning milliy-tarixiy, merosiy uzluksizligi, davomiyligi, ziddiyatliligi va o'zaro aloqadorligi, yoshlar ehtiyojlarining muttasil ortib, dialektik o'zgarib borishini aks ettiruvchi ijtimoiy hodisa) sifatida jamiyatning barqaror va modernizatsion, innovatsion taraqqiyotini ta'minlashdagi roli ochib berilgan;

talaba yoshlarning o'sib borayotgan va anglangan ehtiyojlari ularning zamonaviy aksiologik orientatsiyasining (intellektual va madaniy-ma'naviy salohiyatga, intilish va uni realizatsiya qilish, faollik, kreativ tafakkur, tanqidiy fikrlash, mobillik, axborot madaniyati, faol fuqarolik pozitsiyasi, jamiyatda modernizatsiya jarayonining sub'ektiv omili bo'lishi) dinamik o'sib boruvchi determinanti va kelajakka xizmat qiluvchi, salohiyatini realizatsiya qiluvchi hamda hayotiy ijtimoiy – aksiologik ehtiyojga aylanib boruvchi omil ekanligi dialektik va aksiologik nuqtai nazardan aniqlangan;

talaba yoshlarni innovatsion qadriyatlarni tashuvchi va tarqatuvchi innovator va jamiyat barqaror dinamikasini ta'minlovchi yuksak ma'naviyatli shaxs, evolyutsion davomchilari sifatida milliy aksiologik meros va innovatsiyalarni dialektik uyg'unligi kontekstida yangi avlodlarga yetkazuvchi, ularni kreativlikka yo'naltiruvchi faol sub'ektiv omil ekanligi mantiqiy dalillangan;

O'zbekistonda yoshlarning manfaatlarini himoya qilishga, intellektual, madaniy, ma'naviy salohiyatini realizatsiya qilish asosida yoshlarning faol pozitsiyaga ega bo'lishi uchun sharoitlar yaratishga qaratilgan va gumanistik tamoyil asosida amalga oshirilayotgan yoshlar siyosatining maqsadi va istiqbollari (yoshlar salohiyatini yuzaga chiqarish va realizatsiya qilish, innovatsion ongini yuksaltirish, faoliyatida innovatsiyalarni tatbiq qilish, kreativlik, tanqidiy fikrlash) prognozlashtirish metodi orqali asoslab berilgan;

talaba yoshlarning kelajakda mamlakatimizda ziyolilar qatlamini to'ldirib boruvchi, ijtimoiy demografik guruh – intellektual salohiyatli faol sub'ektiv omil statusiga ega bo'lishida jamiyatda imkoniyatlari va huquqlarini oshib borishida jamiyat barqarorligini ta'minlovchi aksiologik orientatsiyasi va yaratuvchilik roli ochib berilgan.

### **Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

O‘zbekistonda yoshlar manfaatlarini himoya qilishga va ularning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan yoshlar siyosatini amalga oshirishda mamlakat yoshlarini O‘zbekiston kelajagini yaratuvchilari sifatida munosib o‘qish va kasbiy faoliyatga yo‘naltirish orqali moddiy hamda ma‘naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash innovatsion intilishlarini har tomonlama rag‘batlantirishni ko‘zda tutuvchi gumanistik mohiyatga ega bo‘lgan ijtimoiy hodisa ekanligi ochib berilgan;

talaba yoshlar qatlamini yoshlarning ilg‘or guruhi sifatida kelajakda ziyolilar safiga qo‘shiluvchi, intellektual salohiyatga ega bo‘lgan va O‘zbekistonda olib borilayotgan modernizatsiya va innovatsiya jarayonlarining sub‘ektiv omili sifatida faoliyat olib borishi nazariy asoslab berilgan;

talaba yoshlarning o‘zlari amal qiluvchi qadriyatlar hamda aksiologik orientatsiya ijtimoiy hayot rivojiga zamin bo‘ladigan ijtimoiy-aksiologik hodisa bo‘lishi tahlil qilingan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy anjuman materiallari to‘plamlari, OAK ro‘yxatidagi respublika va xorijiy ilmiy jurnallarda nashr qilingan maqolalar, ilmiy xulosalarning amaliyotga tatbiq etilgani, olingan ilmiy natijalarning vakolatli tashkilotlar tarafidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati** dissertatsiyada ilgari surilgan konseptual g‘oyalar va xulosalardan falsafa va boshqa ijtimoiy-gumanitar yo‘nalishdagi fanlarga oid ilmiy tadqiqotlarda foydalanish hamda ularni jamiyatda yoshlar va talaba yoshlar ijtimoiy faoliyatiga daxldor bo‘lgan tizimlarda qo‘llash mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Zamonaviy talaba yoshlar aksiologik oriyentatsiyasining ijtimoiy- falsafiy tahlili (Farg‘ona vodiysi OTMlari talabalari misolida) tadqiq etish asosida:

talaba yoshlar qadriyatlar tizimi va aksiologik oriyentatsiyasining metodologik jihatlarini o‘rganish asosida jamiyat barqarorligini ta‘minlashda talaba yoshlar oriyentatsiyasining o‘rni ochib berilgan bo‘lib, Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazining 2023-yil uchun chora tadbirlar dasturining VIII yo‘nalishida belgilangan “Milliy qadriyatlar, ma‘naviy fazilatlar va ijtimoiy odoblar targ‘iboti” 45 bandi “Axoli ayniqsa yosh avlodning kiyinish madaniyatini rivojlantirishda milliylik va zamonaviylikni uyg‘unlashtirish bo‘yicha hamkorlik ishlarini yo‘lga qo‘yish” mavzusidagi targ‘ibot ishlarini o‘tkazishda dissertatsiya materiallaridan foydalanilgan (Respublika Manaviyat va ma‘rifat markazi huzuridagi ijtimoiy-ma‘naviy tadqiqotlar institutining 2023-yil 27-iyundagi 238 son dalolatnomasi). Natijada, dissertatsiyada ilgari surilgan takliflar, tavsiya va xulosalar mamlakatimizda zamonaviy talaba yoshlar aksiologik oriyentatsiyasining ijtimoiy falsafiy tahlil qilishga xizmat qilgan.

Yoshlar ishlari agentligi faoliyatida Respublikaning turli hududlarida ilm - fan, ta‘lim va ishlab chiqarishning uzviy bog‘liqligini ta‘minlash bo‘yicha takliflar berilgan. Agentlikning xududlardagi davlat va xususiy oliy ta‘lim muassasalari bilan o‘zaro xamkorlik qilish, konferensiya va davra suxbatlarini tashkil etish va innovatsion infratuzilmalarni barpo etish Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

tomonidan ta'minlanishi zarurligi asoslangan. (O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi huzuridagi Yoshlar ishlari agentligining 2023-yil 30-iyundagi 4-13-21-1798-son dalolatnomasi). Natijada, dissertatsiyada keltirilgan taklif, tavsiya va xulosalardan yoshlar o'rtasida amalga oshirilayotgan targ'ibot tadbirlarida keng foydalanilgan.

O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi faoliyatida partiya tizimidagi xodimlarning siyosiy-huquqiy, ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishdagi bilim va ko'nikmalarini oshirish, o'quv uslubiy hamda mafkuraviy targ'ibot ishlarida dissertatsiyada aks etgan tavsiyalardan foydalanilgan (O'zMTDP Markaziy kengashi 21-iyun 2023-yil 02/05-35-son dalolatnomasi). Natijada dissertatsiya ishida ilgari surilgan ta'lim jarayonida talaba yoshlarni innovatsion qadriyatlarini tashuvchi va tarqatuvchi innavator va jamiyat barqaror taraqqiyotini evolyusion davomchilari sifatida milliy aksiologik meros va innovatsiyalarni uyg'unlashtirgan holda yangi avlodlarga yetkazuvchi sub'yektiv omil ekanligi isbotlab berilgan.

talaba yoshlardan jamiyatda modernizatsiya va progressiv transformatsiya jarayonlarini amalga oshiruvchi yoshlar qatlamining faol elementi hamda iqtisodiy-ijtimoiy hayotning turli soxalariga zamonaviy bilimlar va ko'nikmalar asosida innovatsion faoliyatni olib kiruvchi ijtimoiy sub'ektlarning ilg'or qismi sifatida foydalanish va ularning intellektual salohiyatini to'g'ri realizatsiyasi uchun sharoitlar yaratib berish zarurati ilmiy tavsiflab berilgan. (O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi huzuridagi Yoshlar ishlari agentligining 2023-yil 30-iyundagi 4-13-21-1798-son dalolatnomasi). Natijada, dissertatsiya yoshlarning intellektual salohiyatidan keng foydalanish imkoniyatlarini ilmiy – falsafiy asoslab berishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Ushbu tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda aprobatsiyadan o'tgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi yuzasidan jami 15 ta ilmiy ish, jumladan, 4 ta OAKning dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarni chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, shulardan 4 ta respublika va 4 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Tadqiqotning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, to'qqizta paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 136 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, muammoning o'rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, obykti, predmeti, metodlari, maqsadi va vazifalari aniqlangan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilingani, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, tadqiqotning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Talaba yoshlar aksiologik orientatsiyasini tadqiq etishning metodologik jihatlari**" deb nomlanib, unda yoshlar muammosiga ijtimoiy-falsafiy yondashuv aks etgan. Yoshlar va talaba yoshlar aksiologik orientatsiyasini o'rganish avvalo, ularni subyekt sifatida yuksak ijtimoiy qadriyat, jamiyatni taraqqiy ettiruvchi va harakatlantiruvchi ijtimoiy kuch, mamlakatda demokratik o'zgarishlarning omili tarzida tahlil etishni taqozo etadi.

Bobning “Talaba yoshlar xususiyatlarini o‘rganishning ijtimoiy-falsafiy jihatlariga”ga bag‘ishlangan paragrafida yoshlar, talaba yoshlar, yoshlik davri tushunchalari tahlil etilgan. Yoshlar – jamiyatning katta qismini tashkil etuvchi o‘ziga xos ijtimoiy qatlmdir. Falsafiy nuqtayi nazardan yoshlar barcha tarixiy davrlarda jamiyat va uning kelajagi, tendensiyalarini ifoda etuvchi avlod, millatning davomiyligini ta‘minlovchi tarixiy meros egasi va taraqqiyot omili, sotsiologik ma‘noda ijtimoiy obyekt va subyekt, psixologik ma‘noda to‘la shakllanib ulgurmagan, ammo avlodlarni bir-biriga bog‘lovchi, millatning davomiyligini ta‘minlovchi ijtimoiy qatlam. Aksiologik nuqtayi nazardan inson umrining go‘zal davri yoshlik va yoshlarning o‘zi ham ulkan ijtimoiy qadriyatdir.

Yoshlarning madaniyati, axloqi va faoliyati ular yashagan tarixiy davr, tarixiy makonning xususiyatlarini yaqqol ifoda etadi. Yoshlar qatlami jamiyatda yuz berayotgan o‘zgarishlarga tez moslashadilar va shu bilan birga boshqa ijtimoiy guruxlardan farqli turli global ta’sirlarning tez obyektiga aylanadilar. Yoshlar qatlami quyidagi guruhlardan iborat: ishlovchi yoshlar, talaba yoshlar, turli bilim olish maskanlarida o‘qiyotgan yoshlar, ishsiz yoshlar. uyushmagan yoshlar. Sanab o‘tilgan guruhlar shartli ravishda bir-biridan ajratilgan bo‘lib, ular o‘rtasida qat‘iy chegara yo‘q va ularga yuqori dinamika xos.

“Yoshlar” kategoriyasini barcha avlodlarning ma‘lum davriga nisbatan qo‘llash mumkin. Yoshlar barcha davrlarda ham o‘ziga xos ijtimoiy munosabatlar, funksiyalar, ehtiyojlarni tashuvchi, ijtimoiy siyosatning faol subyekti bo‘lgan. O‘zbekistonning taraqqiyotida yoshlar va ularning qadriyatlari muhim omil bo‘lib qolmoqda. “Yuksak ma‘naviyatli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlariga, o‘z mustaqil fikriga ega bo‘lgan yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash biz uchun eng muhim masalalardan biridir”<sup>10</sup>.

Talaba yoshlar yoshlarning ilg‘or guruhi. Talaba – lotinchadan, “tinmay ishlovchi”, “o‘rganuvchi” degan ma‘noni anglatadi. Qadimda biror narsa yoki hodisani bilishga intilib, bilish jarayoni bilan band bo‘lgan kishilarni talaba, deb atalgan. Universitetlarning yuzaga kelishi natijasida “talaba” so‘zi “bilim oluvchi” tushunchasi bilan sinonim sifatida ishlatila boshlandi. Talaba yoshlar o‘tish xususiyatiga ega bo‘lgan ijtimoiy-demografik guruh sifatida tavsiflanishi mumkin Talabalik davri shaxs faol rivojlanishining asosiy davri bo‘lib, unda shaxsning axloqiy qoidalari, o‘zini anglashi va xarakterining barqarorlashuvi amalga oshadi.

A.Egamberdiyevning fikricha, “Talabalar jamiyatning eng faol qatlami bo‘lib, ular ijtimoiy jarayonlarga o‘ta tez kirishib ketadi va har qanday xolatga zudlik bilan munosabat bildirishga qodirdir”<sup>11</sup>. Hozirgi kunda O‘zbekistonda talaba yoshlar soni 1054177 ga etdi. Ular jamiyat yoshlarining 15% foizini tashkil etmoqda.

Talaba, V.T.Lisovskiyning fikricha, o‘ziga xos shaxs sifatida kelajakda moddiy va ma‘naviy ishlab chiqarish sohasida oliy ma‘lumotli mutaxassisning ijtimoiy tayyorgarlik funksiyasini bajaradi. Demak, talaba yoshlar yoshlar qatlamining ma‘rifatli, bilimli hamda ilg‘or qismini tashkil etadi<sup>12</sup>.

<sup>10</sup> Мирзиёев Ш.Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1 жилд. –Т.:Ўзбекистон, 2019.-Б.88.

<sup>11</sup> Эгамбердиев А.Ўзбекистонда олий таълим трансформациясининг ижтимоий-фалсафий таҳлили.Наманган, “Usmon Nosir media”, 2022.-Б.119.

<sup>12</sup> См.:Иконникова С.Н., Лисовский В.Т. Некоторые проблемы воспитания студенческой молодежи // Молодежь и образование. – М., 1972; Лисовский В.Т., Дмитриев В.А. Личность студента. – Л.: Изд-во ЛГУ,1974; Сорокин П.А. Социологические теории современности. – М., 1992. С-34.

Hozirgi kunda shaxs, yoshlar omili, ularning qadriyatlari bilan bog‘liq muammolar ijtimoiy falsafaning muhim obyekt sifatida qolmoqda. “Yuksak ma’naviyatli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlariga, o‘z mustaqil fikriga ega bo‘lgan yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash biz uchun eng muhim masalalardan biridir”<sup>13</sup>. Yoshlarning axloqi, o‘z hayotida qanday qadriyatlarni tanlashi, madaniyati, ma’naviyatining yuksalishi kabilar jamiyat ma’naviy taraqqiyotiga daxldor masalalar hisoblanadi.

Talaba yoshlar oliy ta’lim tizimida talabalik faoliyatini bilim olish, oliy ma’lumotga va jamiyatda ijtimoiy mavqega ega bo‘lib ko‘tarilish orzusini amalga oshirish bilan bog‘laydilar. Maqsadlarning umumiyliigi – o‘qish, turmush tarzi, ijtimoiy hayotda faol bo‘lish kabi jarayonlar talaba yoshlarning jipslashuviga xizmat qiladi. Ularning muntazam o‘zaro yaqin muloqotda bo‘lishi, hayotda o‘z o‘rnini topishga intilishi, yangi g‘oyalarga va jamiyatda progressiv islohotlarga intilishi kabilar talabalarning o‘ziga xos xususiyati hisoblanadi<sup>14</sup>.

Talaba yoshlar yoshlarning boshqa guruhlaridan farq qiladi:

- talaba yoshlarga yoshlar qatlamining guruhi sifatida o‘tish davri xos;
- talaba yoshlar ijtimoiy-madaniy, ma’naviy-psixologik muhitining o‘ziga xosligi va uyushganligi;
- oila, mehnat kollektivi, bank va boshqa ijtimoiy institutlarga bog‘liq bo‘lgan guruh;
- talaba yoshlarning turli yoshlar harakatiga aloqador tashkilotlar bilan bog‘liqligi.

Talaba yoshlar mutaxassislik va malakalilik xususiyati bo‘yicha quyidagi jihatlari bilan farq qiladi:

- talaba yoshlar xali biror soxani to‘la diplomli mutaxassis sifatida egallamagan;
- kelajakda intellektual salohiyatga va kasbga ega bo‘lishi asosida jamiyat taraqqiyotining uzluksizligini ta’minlash va uni qayta ishlab chiqish va tashkil etishdagi roli;
- kelajakda ma’lum kasb-hunar egasi sifatida faoliyat olib borishi; - talaba yoshlar ziyolilar qatlamining kelajak zahirasi.

Hozirgi kunda talaba yoshlar bilan bog‘liq quyidagi masalalarning o‘rganilishi dolzarb hisoblanadi:

- talaba yoshlarning biologik yoshini aniqlash masalasi;
- talaba yoshlarning ijtimoiylashuv jarayonining o‘ziga xosligi;
- ta’lim tizimida talaba yoshlarning ta’lim olishi, bilim olishi bilan birga axloqiy, kasbiy tarbiyasi;
- talaba yoshlarning intellektual, madaniy, ma’naviy va boshqa salohiyatini aniqlash, uni yuksaltirish hamda bu salohiyatni yuzaga chiqarish va realizatsiya qilish masalalarini xal etish;
- talaba yoshlarning qadriyatlari va aksiologik oriyentatsiyasi.

<sup>13</sup> Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни катъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1 жилд. –Т.:Ўзбекистон, 2019.-Б.88.

<sup>14</sup> Якупова О. В. Особенности студенческой молодежи. Пермский Гос.Технический университет. Пермский педагогический журнал (демо-версия) № 7.С-94.

Rossiyalik olim O.V.Yakupovning fikricha: “Talaba yoshlar – o‘tish xususiyatiga ega bo‘lgan ijtimoiy gurux. Talabalar oliy ma’lumotli mutaxassis bo‘lmada, yuqori intellektual salohiyatga ega. Talabalar ular mavjud bo‘lgan ijtimoiy muhit va ijtimoiy institutlar (oilalar, ta’lim) bilan bog‘langan. Zamonaviy talaba yoshlarning qadriyatlar oriyentatsiyasi, hayotiy rejalari va ijtimoiy muammolarini o‘rganish tadqiqotchilarning dolzarb muammosi hisoblanadi. O‘tish davri xos bo‘lgan ijtimoiy guruh sifatida talabalik qadriyatlar nuqtayi nazaridan kelajakda ziyolilar guruhini to‘ldirib boruvchi yangi intellektual qatlamning asosiga aylanib bormoqda”<sup>15</sup>.

Tadqiqotchilar tomonidan talaba yoshlarga berilgan ta’riflar asosida quyidagi ta’rifimizni taklif etamiz: talaba yoshlar - yoshlarning o‘ziga xos ijtimoiy-madaniy, ma’naviy-ruxiy, ilmiy jihatdan ilg‘or va uyushgan, ma’lum kasbni egallashga qaratilgan bilim olish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi, milliy va zamonaviy qadriyatlar, madaniyatni muntazam o‘zlashtirib boruvchi, yuqori intellektual salohiyatga ega bo‘lgan kelajakda jamiyat ziyolilar qatlamini to‘ldirib boruvchi zahira -yoshlar guruhidir.

Bobning ikkinchi **““Aksiologik oriyentatsiya” tushunchasi. Talaba yoshlar qadriyatlarining o‘ziga xos xususiyatlari”** nomli paragrafida asoslanishicha, jamiyatning barqaror rivojlanishi, avlodlarning o‘zaro bog‘liqligi, milliy merosning kelajakka o‘tib borishi ko‘p jihatdan yoshlarning amal qilayotgan qadriyatlariga aloqador. Shunga ko‘ra yoshlarning aksiologik tarbiyasi, o‘z hayotida qanday qadriyatlarga amal qilishi va ulardan voz kechishi kabi muammolarga e’tibor qaratish zarur.

Aksiologik oriyentatsiya - bu ma’lum subyekt, gurux, jamiyat tomonidan afzal ko‘rilgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma’naviy, axloqiy, estetik va boshqa qadriyatlar bo‘lib, ular mazkur subyektlarning ijtimoiy va shaxsiy hayotidan muhim o‘rin olgan ijtimoiy hodisa hisoblanadi.

Talaba yoshlarning aksiologik oriyentatsiyasi iqtisodiy, madaniy-ma’naviy, ilmiy-texnologik, siyosiy –xuquqiy, diniy- axloqiy, estetik, kommunikativ shakllarda namoyon bo‘ladi. Aytish zarurki, talaba yoshlar qadriyatlari tizimida qadriyatlarining o‘zgarmas e’yemtlari mavjud:

- bilim olish;
- barkamol shaxs sifatida faoliyat olib borish;
- oliy ma’lumotli bo‘lish;
- yaxshi ish o‘rniga ega bo‘lish;
- mehnati uchun munosib maosh olish;
- yuqori malakaga ega bo‘lgan mutaxassis bo‘lib etishish;
- intellektual salohiyatga ega bo‘lish;
- jamiyatning ziyoli, elita guruhining a’zosi bo‘lish;
- jamiyatda yuqori ijtimoiy-professional mavqega ega bo‘lishi.

Talabalarning aksiologik oriyentatsiyasiga ularning ehtiyojlari ta’sir etadi. Yoshlar va talaba yoshlar jamiyat a’zolarining yagona guruhini tashkil esa-da, talaba

---

<sup>15</sup> Якупова О. В. Особенности студенческой молодежи. Пермский Гос.Технический университет Пермский педагогический журнал (демо-версия) № 7.С-93.

yoshlar xususiyatlari bilan yoshlardan farq qiladi. Talaba yoshlarning aksiologik oriyentatsiyasi asosida ularning maqsadlari va ehtiyojlari, ideallari turadi. Bunday oriyentatsiya har bir jamiyat a'zosining salohiyati, ilmiy, madaniy-ma'naviy, axloqiy ehtiyojlari, orzulari hamda ijtimoiy ideallarining shakllanishiga ta'sir etadi. Jamiyat a'zolari qatori yoshlar aksiologik oriyentatsiyasi jamiyatda hukm surayotgan qadriyatlarning mohiyatini belgilaydi. Yoshlarning aksiologik oriyentatsiyasida albatta, jamiyatning ehtiyojlari, talablari va ideallari aks etadi. Ehtiyojlar tobora ortib, zamonaviy xususiyatga ega bo'lib boradi.

Ijtimoiylashib borayotgan inson o'zini muntazam takomillashtirib boradi va qayta tashkillashtiradi. U o'z ijtimoiy makonida harakat qiladi va o'z hayot yo'lini qidiradi. U ehtiyojlari va maqsadlaridan kelib chiqib ma'lum faoliyat olib boradi, mehnat qiladi, o'ziga o'xshash insonlar bilan ijtimoiy munosabatlarga kiradi. Bu munosabatlarning ishtirokchilari bir-biriga o'zaro ta'sir etib, o'zgartiradi va rivojlantiradi.

Dissertatsiyaning ikkinchi **“Yangi O'zbekiston taraqqiyotida talaba yoshlar aksiologik oriyentatsiyasining roli”** deb nomlangan bobida talaba yoshlar qadriyatlar tizimining xususiyatlari, elementlari, ularning shakllanishi va jamiyat taraqqiyotiga ko'rsatadigan ta'siri muammolari tahlil etilgan. Talabalar kelajakda ziyolilar qatlamini to'ldiruvchi subyektlar sifatida jamiyat taraqqiyotiga o'z intellektual, professional va madaniy-ma'naviy salohiyati bilan ta'sir etishi muammolariga e'tibor qaratilgan.

Bobning bosh paragrafi **“Zamonaviy talaba yoshlarning ijtimoiylashuvi va uning xususiyatlari”** deb nomlangan. Dissertantning fikricha, jamiyatda yuz berayotgan har qanday o'zgarishlar uning a'zolarining ongi, madaniyati va qadriyatlariga ta'sir etadi. Jamiyatning barqaror taraqqiy etishi uchun boshqa ko'plab subyektiv omillar qatori zamonaviy yoshlar va ayniqsa, talaba yoshlarning qanday qadriyatlarga amal qilishi muhim ahamiyatga ega. Ularning ongida jamiyat ehtiyojlarining aks etishi hamda milliy tarixiy va innovatsion qadriyatlar uyg'unligi zaruratining to'g'ri aks etishi ham progressiv taraqqiyotga xizmat qiladi.

Bu jarayon O'zbekistonda islohotlar, modernizatsiya jarayonlarini qo'llab-quvvatlab turuvchi omillardan biridir. “Jamiyat ma'naviyati, yurt barqarorligi, millat farovonligi har qanday taraqqiyotning muhim sharti va kafolatidir. Bunga erishish uchun esa tarixiy xotira, milliy va diniy qadriyat, an'analarni izchil o'rganib, davr ruhi bilan boyitgan holda davlatning kelajagi bo'lgan yoshlar ongida shakllantirib borish zaruriy jarayon sanaladi. Ushbu omillar yoshlarning jamiyatdagi roli, ijtimoiy faolligi darajasini ham belgilaydi”<sup>16</sup>.

Talaba yoshlarning ideallari va ehtiyojlari ilg'or, zamon ruhiga mos tushadigan qadriyatlarni shakllantirish bilan birga jamiyatning yosh a'zolarini birlashtirish va safarbarlik xususiyatiga ega. Ideal yangi qadriyatlarni yuzaga keltiradi va jamiyat barqarorligini ta'minlaydi, uning a'zolari harakatga kelib taraqqiy etadi, faoliyatning yangi turlari yuzaga keladi, tiradi, “Ma'naviy ideallar ahloqiy qonunlar, axloqiy

---

<sup>16</sup> Мадаева Ш. Ўзбек менталитетига демократик тафаккурнинг шаклланиш хусусиятлари. 09.00.11. Ижтимоий фалсафа ф.ф.д.илмий даражасини олиш ёзилган диссертация. – Б.203. – Т., 2009.

tamoyillar va qadriyatlarda o‘z ifodasini topadi. Ideallar alohida shaxslar tomonidan o‘zlashtirilgandan keyin bu shaxslarning faoliyat motivlariga aylanadi. Endi ular shaxsning xulq-atvorini tartibga solish, boshqarish funksiyasini bajara boshlaydi”<sup>17</sup>.

Oila, maktabgacha ta’lim muassasalari, mahalla, o‘rta va oliy ta’lim tizimi, mehnat jamoasi, OAV, yoshlar tashkilotlari va boshqa yoshlar o‘zaro munosabatda bo‘ladigan guruhlar yoshlar qadriyatlarining shakllanishiga kuchli ta’sir etadi.

Zamonaviy talaba yoshlarning xarakteri, ruhiy xolati, innovatsiyalarga nisbatan “ochligi”, komfort, engil hayot, moddiy boyliklarni ma’naviy boyliklardan ustun qo‘yishi, “shu erda va hamma erda” bo‘lishga intilishi, xorijiy mamlakatlarga turli maqsadlar bilan osongina chiqib ketish istagi, bir so‘z bilan aytganda, zamonaviy madaniyat qoidalarini tez o‘zlashtira olishi kabilar ularning qadriyatlarga bo‘lgan munosabatini ham belgilaydi. Natijada yoshlar ongida kreativ yondashuv, innovatsiyalarni olqishlashi, ijtimoiy-madaniy hodisalarga zamonaviy munosabat va o‘ziga xos “talabalik madaniyati” shakllanadi.

Bobning ikkinchi paragrafi **“Zamonaviy talaba yoshlar ehtiyojlari va qadriyatlarining dinamikasi”** deb nomlangan. Unda talaba yoshlar qadriyatli oriyentatsiyasi asosida dolzarb ehtiyojlarining qondirilishi, intellektual salohiyatini yuzaga chiqarish va realizatsiya qilish kabi muammolarining xal etilishi mamlakat barqarorligini ta’minlovchi omillar sifatida tahlil etilgan.

Hozirda bilimning samaradorligi va foydaliligi muddati tobora qisqarib, bilim oluvchi va bilim beruvchining oldiga yangi talablarni qo‘ymoqda. Talaba yoshlar bir vaqtning o‘zida bir nechta kasbni egallashi zaruratga aylandi. Moddiy boylik, pul emas, bilim va unga sarf qilinadigan vaqt talabaning asosiy qadriyatiga aylandi. hatto vaqt eng zarur qadriyatga aylanib ulgurdi.

Bu hodisalar talaba yoshlardan barcha soxalarda faol, kreativ bo‘lish, intellektual, raqobatbardosh bo‘lishni talab etmoqda. Zamonaviy bilim axborotga asoslanadi. Axborot ham zamonaviy qadriyatga aylandi. Axborotni o‘zlashtirgan talaba yuksak bilim va malakaga ega bo‘lgan “dolzarb shaxs” sanaladigan bo‘ldi. So‘nggi vaqtda keng qo‘llanilayotgan “ta’lim xizmatlari bozori”, “raqobatbardosh ta’lim” tushunchalari zamonaviy ta’lim tizimining va ayniqsa, oliy ta’limning mohiyatini aks ettiruvchi tushunchalarga aylandi.

Hozirgi davrda oliy ta’lim tizimida quyidagi obyektiv jarayonlar kuzatilmoqda: yangi texnologiyalarning kirib kelishi natijasida ish o‘rinlarining kamayib borayotganligi; aholi o‘rtacha yoshining ortib borishi va talabalik yoshining ham yuqorilab borishi; milliy an’anaviy ta’limning transformatsiyaga uchrayotganligi; ta’lim olishning o‘zi qadriyat sifatida mohiyatini o‘zgartirib borayotganligi; oliy ta’lim tizimining transformatsiyasi. Xorijiy innovatsiyalarning kirib kelishi natijasida oliy ta’lim tizimi tobora xalqarolik xususiyati kasb etib bormoqda.

